

O'ZBEKISTON TARIXI VA UNING UNING O'ZIGA XOS TARAQQIYOT YO'LI

Xidirov Islomjon Tojiboy o'g'li

Farg'ona viloyati Uchko'priki tumani

1-son Politexnikumi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og'ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasidir. Vatanimiz tarixi mustaqillik xalqimizga nihoyatda qimmatga tushganidan, istiqlol asrlar davomida berilgan qurbonlar evaziga qo'lga kiritilganidan guvohlik beradi. Endilikda xalqimizning o'z taqdiri o'z qo'lida, xalq o'z mamlakatining mustaqilligini mustahkamlash yo'lida astoydil mehnat qilmoqda

Kalit so'zlar: davlat, xalq, etnik tarkib, muxtoriyat, xonliklar, kurash, jadidlar, taraqqiyot.

Annotation: the independence of the state of Uzbekistan is the legitimate result of the hard and hard struggle of our people for many years. The history of our homeland testifies to the fact that independence was extremely valuable to our people, Independence was gained in exchange for victims given for centuries. Now our people's own fate is in their hands, the people are working hard on the way to strengthen the independence of their country

Keywords: state, people, ethnic composition, autonomy, khanates, struggle, jadids, progress.

KIRISH

O'zbekiston tarixi – o'zbek xalqi ma'naviyatining asosi, yurtimiz bosib o'tgan tarixiy yo'l, avlod-ajdodlarimiz va mamlakatimiz tarixi. O'zbekiston geografik jihatdan ham, siyosiy jihatdan ham Markaziy Osiyoning o'zagini tashkil etadi, ta'bir joiz bo'lsa, yuragi hisoblanadi. Dunyodagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri mana shu mintaqada paydo bo'lgan.

Qadimgi zamonlarda Buyuk Ipak yo'li shu yerdan o'tgan. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi o'z ildizlari bilan asrlar qa'riga borib taqaladi va uch ming yildan ko'proq davrni o'z ichiga oladi. Prezidentimiz alohida ta'kidlagani kabi, Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki, umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, sarkardalar, siyosatchilar yetishib chiqqan.

Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu paytgacha

koʻrku fayzini, mahobatini yoʻqotmagan osoru atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, meʼmorchilik va shaharsozlik sanʼati yuksak boʻlganligidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qoʻlyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, sanʼat, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, meʼmorchilik, dehqonchilikka oid oʻn minglab asarlar bizning beqiyos maʼnaviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega boʻlgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin.

ASOSIY QISM

Istiqlol yillarida Oʻzbekiston aql-zakovat salohiyatini rivojlantirishga, xalqaro ilmiy-madaniy aloqalarni kengaytirishga jamiyatshunos olimlar, birinchi navbatda, tarixchilar, arxeologlar, manbashunoslar va etnologlar katta hissa qoʻshdilar. Oʻzbek xalqining etnogenezi oʻrganish va uning xolisona tarixini qayta yaratish, anʼanalari, turmush tarzi va madaniyatini oʻrganish bilan bogʻliq ishlar juda katta qiziqish uygʻotmoqda. Haqiqatan ham, dunyoda oʻzbekning qoʻlidan kelmaydigan ish yoʻq. Qozoqning buyuk oqini Abay eʼtirofini hech kim inkor eta olmaydi: “Oʻzbeklar yetishtirmaydigan, moʻl hosil olmaydigan ekinning oʻzi yoʻq, yer yuzida oʻzbek savdogarlarining oyogʻi yetmagan joy yoʻq, oʻzbeklar uddalay olmagan ishning oʻzi yoʻq... Oʻtkir zehn, mahorat, abjirlik va tadbirkorlik – bularning hammasi oʻzbeklarga xos xususiyatdir”.

Qalmiq adibi David Kugultinov yuqoridagi fikrga tan berib, shunday yozgan edi: “Xudo oʻzbeklarga saxiy va tunganmas xazina misol zamin, ana shu zamin singari saxiy va muruvvatli maʼnaviyat, goʻzal til va jahonga tatigulik buyuk madaniyat berdi. Bunchalik katta merosga egalik qilish yer yuzidagi hech bir xalqqa nasib etmagan”. Tarixda “Turon”, “Turkiston”, “Movarounnahr” nomi bilan mashhur boʻlgan Markaziy Osiyo, ayniqsa, Oʻzbekiston hududida minglab yillar davomida yuksak madaniyat gullab-yashnagan, qudratli davlatlar mavjud boʻlgan. Ular insoniyat tarixida, jahon maʼnaviyatini rivojlantirishda yorqin iz qoldirgan. Shu sababdan ham dunyoda Markaziy Osiyo boʻyicha tadqiqotlar olib boruvchi 40dan ziyod institutlar, markazlar, universitetlar olimlari va jamiyatlar faoliyat koʻrsatmoqda (2008). Hozirgi Oʻzbekiston yerlarining tabiati kishilik tarixining quyi paleolit (miloddan avvalgi 3 mln. yil – 100-minginchi yillik) bosqichidayoq bu yerlarda odamzod yashashi uchun qulay boʻlgan. Fargʻona vodiysining Soʻx soyi sohilidagi Selungur gʻorida va Ohangaron vodiysining Koʻlbuloq makonida topib oʻrganilgan ilk tosh davri yodgorliklariga qaraganda, qadimgi Turon yerlarida bunday qariyb 700 ming – 1,5 mln. yil muqaddam ibtidoiy odamlar yashagan. Oʻrta paleolit (miloddan avvalgi 100–40-mingyilliklar) davriga oid Teshiktosh gʻoridan topilgan 8–9 yoshli bolaga tegishli

suyak qoldiqlari fan olamida jiddiy kashfiyot bo‘ldi. Odam suyaklari atrofiga terib chiqilgan arxar va Buxoro bug‘usi shoxlarining topilishi dafn marosimlarining ibtidoiy ko‘rinishlari bilan bog‘liq. Marhumni qabrga turli buyumlar bilan birga ko‘mish dastlabki diniy tasavvurlarning vujudga kela boshlaganini ko‘rsatadi. Yuqori paleolit (miloddan avvalgi 40–12-ming yillik) bosqichida hozirgi zamon odami (kromanyon) shakllangan. O‘sha davr odamlari fanda “*Homo sapiens*” – idrokli odam deb nomlanadi.

Hozirgi zamon odamining 3 irqi – yevropoid, negroid, mongoloid qiyofalari ham o‘sha vaqtda vujudga kelgan. Odam to‘dalari qon-qarindosh bo‘lib yashay boshlagan. Ona tomondan qarindoshlik mustahkamlanib, matriarxat paydo bo‘lgan. Tasviriy va amaliy san‘atning ibtidosi ham o‘sha davrdan boshlangan. Mezolit (miloddan avvalgi 12–7-ming yilliklar)da o‘q-yoy kashf etilgan, bu o‘sha davr odamlari hayotida buyuk burilish yasagan. Hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish boshlangan. Mezolit davrida ungurlar devoriga o‘yib chizilgan yoki rangli bo‘yoqlar bilan tasvirlangan ibtidoiy san‘at paydo bo‘lgan. Bular totemistik e‘tiqod bilan bog‘liq bo‘lib, ulardan biri Surxondaryoning Zarautsoy dasarida topib o‘rganilgan. Neolit, ya‘ni yangi tosh davri (miloddan avvalgi 6–4-ming yillik)da ovchi jamoalar yerto‘la, chayla yoki kapalar bino qilib, o‘troq hayot kechirishga o‘tganlar. Bu davrda oila tarixining dastlabki bosqichi – juft nikoh urf bo‘lgan.

Eneolit (mis-tosh) davrining (milloddan avvalgi 4–3-ming yillik) nodir yodgorligi Zarafshon vodiysida joylashgan Sarazm bo‘lib, u yerdan sirtiga rangdor naqshlar berilgan sopol bo‘laklari, mis ko‘zgu, oltin va kumushdan yasalgan munchoqlar topilgan. Jez davrida (miloddan avvalgi 3–2-ming yilliklar) ovchilik va terimchilik ijtimoiy va iqtisodiy hayotda o‘zining dastlabki ahamiyatini yo‘qotgan. Ot, eshak, tuya va ho‘kizdan transport vositasi sifatida foydalanilgan, aravalar vujudga kelgan. Bu davrda rivojlangan Baqtriya (Amudaryo bo‘yi) dehqonchilik madaniyati shakllangan. Ilk shaharlar paydo bo‘lgan. Temir davri (miloddan avvalgi IX asrdan) yodgorliklari Xorazm, Baqtriya, So‘g‘d, Choch yerlari va Farg‘ona vodiysida o‘rganilgan. Bu davrda hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqqan. Mehnat unumdorligi o‘sib, qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarila boshlangan. Bu esa ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishiga olib kelgan. Aholi kohinlar, jangchilar, dehqonlar va hunarmandlar toifalariga bo‘lingan. Qabilalar o‘rtasida harbiy ittifoqlar tuzilgan. Kuchli lashkarboshilar “qoviy”, (kuchli, zabardast) unvonlari bilan atala boshlagan. Qoviylik hokimiyati merosiy bo‘lgan. Ular el-yurti tashqi yov bosqinlaridan mudofaa etar, daryolardan katta-katta kanallar chiqarish va yangi berilgan. Vizantiya tarixchisi Prokopiyning yozishicha, eftaliylarning qonuniy davlati podshohi mutlaq tomonidan boshqarilgan. Xioniy va kidariylarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi hamda Eftaliylar davlatining tashkil topishi mahalliy aholining ma‘naviy hayotiga ham ma‘lum darajada ta‘sir etgan. Asriy an‘analari kuchli bo‘lgan Tohariston va

So‘g‘diyonada ko‘chmanchilar tez orada o‘troqlashib, mahalliy aholi bilan qorishgan va uning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy hayotida faol ishtirok etgan. Ilk o‘rta asrlarning o‘ziga xos madaniyati shakllana boshlagan. Bu, ayniqsa, binokorlik, me‘morlik va tasviriy san‘atning ayrim jabhalarida ko‘proq namoyon bo‘lgan. VI–VIII asrlarda mamlakatning siyosiy jihatdan zaiflashuvi uning bir necha mayda davlatlarga bo‘linib ketishiga sabab bo‘lgan.

So‘g‘d va Farg‘onada ixshidlar, Toharistonda malikshohlar, Xorazmda xorazmshohlar, Choch va Iloqda tudun va dehqonlar hukmronlik qilgan. Ilk o‘rta asrlarda So‘g‘dda shahar va qishloq aholisi “naf” deb atalgan. Zodagonlar “ozod”, shahar hunarmandlari “ozodkor”, savdogarlar “g‘uvokor”, ziroatkorlar “kashovarz”, qul va cho‘rilar “bantak” va “doya” deb yuritilgan. Bu davrda Turon aholisi zardushtiy, budda, xristianlik, moniy va qam (shomon) kabi dinlarga e‘tiqod qilgan.

XULOSA

VIII asr boshlarida Movarounnahr Arab xalifaligi tomonidan istilo etilgan. Bu davrda sodir bo‘lgan murakkab siyosiy vaziyatning tadrijiy rivoji va u bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar mamlakat ma‘naviy hayotiga ham kuchli ta‘sir etgan. Dastlabki ma‘lumotni Movarounnahr, Xuroson va Xorazm madrasalarida olgan Markaziy Osiyo olimlari Bog‘dod, Damashq, Qohira, Kufa va Basrada bilimlarini oshirgan. Ular o‘z asarlarini o‘sha davrda ilm tiliga aylantirilgan arab tilida yozishga majbur bo‘lganlar. Movarounnahr va Xuroson aholisining tez-tez qo‘zg‘olon ko‘tarishi, mamlakat ichida uzluksiz davom etgan urushlar Arab xalifaligi hokimiyatini zaiflashti rib, mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishiga olib kelgan. O‘zbekiston hududida Qarluqlar, O‘g‘uzlar davlatlari hukm surgan. 873-yilda Xurosonda Tohiriylar hukmronligi tugatilib, yangi Safforiylar davlati tashkil topgan. Bunday siyosiy o‘zgarishdan so‘ng Movarounnahr o‘z mustaqilligini to‘la tiklab olgan. Bu davrda Samarqand, Farg‘ona, Shosh va Ustrushona viloyatlarida Somoniylar xonadoni vakillari noib edilar. Ismoil davrida Xuroson ham Somoniylar qo‘l ostiga o‘tgan. Mamlakat ma‘naviy hayotining tayanchi bo‘lgan islom mafkurasiga Somoniylar davrida “ustod” – din va ilm peshvolari rahnamolik qilgan. Somoniylar davridagi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy ko‘tarilish ma‘naviy hayot ravnaqiga imkon bergan. Buxoro, Samarqand, Nasaf, Gurganj, Marv singari shaharlar ilmiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy etgan. Bu davrda qishloq aholisining aksariyati so‘g‘diy, turkiy, xorazmiycha so‘zlashsa-da, markaziy shaharlarda davlat tili sifatida qabul qilingan forsiy-dariy adabiy tili vujudga kelgan. Forsiy-dariyda nazm, nasr va ilmiy asarlar yozila boshlagan. Bu davrda Muhammad Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Narshaxiy, Beruniy kabi jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk siymolar ijod qilganlar. X asr o‘rtalarida tashkil topgan Qoraxoniylar davlati podsholari buyuk hukmdor ma‘nosini anglatuvchi “arslonxon” va “bug‘roxon” unvonlari bilan yuritilgan. Buyuklik, ulug‘lik esa qadimda turkiy xalqlarda “qora”

soʻzi bilan sifatlangan. 999-yilda Qoraxoniylar Buxoroni bosib olib, Somoniylar hokimiyatiga barham bergan. X asr oxirida Somoniylar mulki oʻrnida Qashqardan Amudaryogacha choʻzilgan Qoraxoniylar va Hindiston shimolidan Kaspiy dengizi janubiga qadar viloyatlarni egallagan Gʻaznaviylar davlati tashkil topgan. Sirdaryo etaklarida yashovchi oʻgʻuzlardan ajralib, Saljuqiy nomi bilan Xurosonga borib oʻrnashgan kuchlar Gʻaznaviylarga qarshi jiddiy kurash boshlagan. 1040-yildagi Dandanakon jangida Saljuqiylardan magʻlub boʻlgan Gʻaznaviylar tasarrufida oʻazna, Qobul, Qandahor va Panjob viloyatlarigina boʻlib, u kichik davlatga aylanib qolgan. Saljuqiylar Toʻgʻrulbek zamonida 1055-yilda Bogʻdodda oʻz siyosiy hukmronligini oʻrnatgan. Saljuqiylar 1043-yilda Xorazmni ham boʻysundirgan. 1127-yilda Xorazm Qoraxitoylar tomonidan egallangan. Ular Xorazmning ichki ishlariga aralashmay, faqat boj va oʻlpon yigʻish bilan kifoyalangan.

XIII asr boshida Xorazm juda katta hududni egallagan buyuk davlatga aylanib, uning chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohilidan Iroqqa qadar borar, janubi-sharqiy sarhadi Gʻazna viloyatidan, Yettisuv va Dashti Qipchoqdan oʻtar edi. Poytaxti Gurganj shahri boʻlgan. Movarounnahr aholisining Qoraxitoylar asoratidan ozod boʻlib, Xorazm davlatiga birlashishi ijobiy tarixiy voqea edi. Lekin, sirtdan qaraganda juda kuchli, nufuzi buyuk koʻringan Xorazmshohlar davlati siyosiy jihatdan unchalik mustahkam boʻlmagan. Shu sababga koʻra, Chingizxon boshliq moʻgʻil bosqinchilari Xoʻjand hokimi Temur Malik, 1221-yil boshida Xorazm davlati sultoni deb eʼlon qilingan Jaloliddin Manguberding qahramonliklariga qaramay, Movarounnahrni nisbatan oson istilo etishga muvaffaq boʻlgan. Moʻgʻillar istilosi oqibatida Movarounnahr va Xorazm iqtisodiy va maʼnaviy hayotiga juda katta zarar yetib, gavjum va koʻrkam shaharlar, ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Gurganj, Marv, Banokat, Xoʻjand kabilar xarobazorga aylantirilgan. Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahr Chingizxonning 2-oʻgʻli Chigʻatoyga berilgan. Koʻchmanchi moʻgʻillar oʻtroq aholidan iborat katta va madaniy viloyatlarni boshqarishda boʻysundirilgan xalqlarning zodagon tabaqa vakillari xizmatidan foydalanganlar. XIV asr 40-yillarida Chigʻatoy ulusi Sharqiy Turkiston va Yettisuvdan iborat Moʻgʻiliston va Movarounnahr qismlariga boʻlinib ketadi. Movarounnahrda moʻgʻillar istilosi oqibatida inqirozga yuz tutgan fan, adabiyot, maʼrifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari tiklana boshlaydi va bu davrda, birinchi navbatda, shaharsozlik bilan bogʻliq boʻlgan binokorlik va meʼmorchilik yoʻlga qoʻyiladi. Oʻsha asrlarda tiklangan koʻpgina madaniyat obidalaridan ayrimlari bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik kuchayib, oʻzaro kurash keskinlashgan. Shunday paytda tarix sahnasiga chiqib kelgan Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda tarqoqlik, oʻzaro nizolarga chek qoʻyib, Sirdaryo boʻylaridan Orol dengizigacha boʻlgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona markazlashgan davlat tasarrufida birlashtirgan. Amir Temur oʻzining 35 yillik hukmronligi davrida Hindiston

hamda Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qoʻltigʻigacha gʻoyat katta hududni oʻz ichiga olgan ulkan saltanatni vujudga keltirgan. Saltanat poytaxti Samarqandda Isfaxon, Sheroz, Xalab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Kesh shaharlari meʼmoru binokorlari ishtirokida saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar qurilgan. Bunyodkorlik faoliyati hoz. Oʻzbekiston hududidan tashqarida ham amalga oshirilgan. Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bogʻdodda madrasa, Turkistonda Xoja Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara bino qurdirilgan. Bunyodkorlik faoliyati temuriylar davrida ham davom ettirilgan. Mirzo Ulugʻbek hukmronligi davrida ham poytaxt shaharlarda olimu fuzalolar, shoiru bastakorlar, meʼmoru binokorlar va naqqoshu hunarmandlarning katta guruhi toʻplangan. Samarqand va Buxoro ilmu maʼrifat dargohiga aylantirilgan. Ulugʻbek farmoni bilan Buxoro (1417), Samarqand (1417–1420) va Gʻijduvonda (1433) madrasalar qurilgan. Buxoro madarasasi darvozasiga: “Ilm olmoq har bir musulmon ayol va erkakning burchidir”, degan kalima yozib qoʻyilgan. Samarqandda dunyoga kelgan rasadxona astronomiya sohasida jahonshumul ahamiyat kasb etgan natijalarga erishgan. Temuriylardan soʻng hokimiyatga kelgan Shayboniylar sulolasi 100-yil hukm surgan. Poytaxt dastlab Samarqand, Ubaydullaxon davrida Buxoroga (1533) koʻchirilgan. Shundan soʻng mazkur davlat Buxoro xonligi deb atala boshlagan. Ashtarxoniylar sulolasi (1601–1753) davrida siyosiy nizo, ichki kurashlar kuchayib, Buxoro va Xiva xonliklari oʻrtasidagi urushlar katta talafotlarni keltirib chiqargan. Ashtarxoniylardan soʻng Mangʻitlar sulolasi (1753–1920) taxtga chiqqan davrda ham madrasalar qurilgan, lekin ularda asosan, fors va arab tillari, diniy taʼlimotlar oʻqitilgan.

ADABIYOTLAR

1. Q.USMONOV, M. SODIQOV S. BURXONOVA OʻZBEKISTON TARIXI. Oliy oʻquv yurtlarining barcha bakalavr yoʻnalishlari uchun (tarix yoʻnalishidan tashqari) darslik. Qayta ishlangan ikkinchi nashr. Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA»2016.
2. Ravshanov P., Oʻroqov R. Ajdodlarimiz qadri. T., «Sharq», 1999.
3. Rasulov B.M. Turkiston madrasalari. «Fan va turmush», 1996 yil 2-son. Рожкова М.К. Экономические связи России со Средней Азией 40—60 годы XIX в. М., 1963.
4. Романовский Д.И. Заметки по Средне-Азиатскому вопросу. Петербург, 1868.
5. Ромодин В.А. Некоторые источники по истории Ферганы и Кокандского ханства (XVI-XIX вв.). Труды XXV международного конгресса востоковедов. М. М., 1963,
6. Т. III. Садыков А. С. Россия и Хива в конце XIX - начале XX века., 1972. Савицкий А. Поземельный вопрос в Туркестане. Т.,

7. 1963. Санг-Заде. К 30-летию Андижанского восстания 1898 г. «Революция в Средней Азии». Сборник 1. Toshkent, 1928.
8. Сафаров Г.И. Колониальная революция (опыт Туркестана). М., 1921.
9. Murodova Sh. XX asr boshlarida Turkistonda milliy-ozodlik harakatlari tarixi (Samarqand viloyati misolida). Nomzodlik dissertasiyasi. T., 1999.
10. Sodiqov H.J. XX asr boshlarida chorizmning Turkistondagi mustamlakachilik siyosati va istikdol uchun kurash. Dokt. diss. T., 1994.
11. Кененсариев Тошманбет. Политическое развитие Кыргызстана 50—70-е годы XIX века . Т., 1948.
12. Xoliqova R.E. XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida RossiyaBuxoro munosabatlari tarixi. Dokt. diss. T., 2005.
13. Choriyev Z.U. XX asr boshida Turkiston o‘lkasida mustamlakachilik siyosati va milliy zulmning kuchayishi hamda uning oqibatlari (mardikorlikka safarbarlik misolida). Dokt. diss. Toshkent, 1999.III.